



UDK:81.23

Barnoxon DADAMIRZAYEVA,
Namangan davlat universiteti Doktoranti
E-mail: Barno3007209@gmail.com

NamDCHTI dotsenti, PhD X.Tursunov taqrizi asosida

TALABALARDA SEMANTIK O'QISH KO'NIKMALARI BADIY MATNLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya

Maqola semantik o'qish mohiyatini tushuntiradi va ingliz tili o'rganuvchi yoshlarni semantik o'qish ko'nikmalarini shakllantirgan holda shu tildagi til bilish salohiyatini oshirish usullari va tahlili izohlanadi.

Kalit so'zlar: Semantik o'qish, o'qitish metodlar, o'qitish texnikasi, mantiqiy o'qish.

STUDENTS' SEMANTIC READING SKILLS DEVELOPMENT METHODS THROUGH ARTISTIC TEXTS AND THEIR ANALYSIS

Annotation

The article explains the essence of semantic reading and discusses methods and analysis aimed at enhancing the linguistic competence of young English language learners by developing their semantic reading skills.

Key words: Semantic reading, teaching methods, teaching techniques, logical reading.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СЕМАНТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье раскрывается сущность семантического чтения и обсуждаются методы и анализ, направленные на повышение языковой компетенции молодых изучающих английский язык путем развития их семантических навыков чтения.

Ключевые слова: Семантическое чтение, методы преподавания, приемы преподавания, логическое чтение.

Kirish. Til va nutq insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, xorijiy tilni faqat til va nutq jarayonida o'rganish mumkin degan fikr noto'g'ri hisoblanadi. Til o'rganishda unga butun bir sistema sifatida qarash muhimdir. Chet tilning operatsion (til) va motivatsion (nutq) tomonlarini egallash jarayonini bevosita amalda qo'llash, mashxur metadist olim Jamol Jamolovning ta'kidlashicha, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo'li sanaladi. YA'ni, tilni faqat o'rganish yoki uni o'rganish juda qiyin jarayon deb ta'riflash noto'g'ri. Har bir ishni ongli va tushunib bajarish esa aniq bilishni anglatadi[2].

Tilni bilish va uning elementlari orasidagi bog'lanishni anglash, faqat tilning alohida jihatlarini o'rganish bilan cheklanmaydi. Tilning butunligini anglab yetish – ya'ni uning grammatik, leksik, fonetik va stilistik jihatlarini bir-biriga bog'lab ko'rib chiqish – asosiy maqsad hisoblanadi.

Tadqiqotchi olimlar Adasay Berdikulova va Shynar Kapantaykyzy kabi tadqiqotchilar, shuningdek, boshqa ilmiy ishlar [1] bilan hamkorlikda olib borilgan sorovnomalar natijalariga ko'ra, chet til o'rganuvchi o'smirlarning fikrlarini o'rganishganlar. Ushbu tadqiqotga ko'ra, til o'rganuvchilar uchun eng muhim mahorat sifatida gapirish va tinglab tushunish ko'rsatkichlari eng yuqori o'rinni egallagan, o'qish va yozish ko'nikmalari esa salbiy tomondan baholalanib, pastroq ko'rsatkichlarni namoyon qilgan.

Shunga qaramay, keyinchalik bu tajriba qayta tiklanganda natija tubdan o'zgargan. Bu holat esa til o'rganish jarayonining tabiati va unda qo'llaniladigan metodologiyalarning samaradorligi haqidagi yangi talqinlarga sabab bo'lgan. Natijada, til o'rgatishda turli mahoratlarning integratsiyasi va ularga nisbatan teng darajada e'tibor berishning ahamiyati yanada ortib boradi.

Chet til o'rganish jarayonida turli ko'nikmalar – gapirish, tinglash, o'qish va yozish – turli bosqichlarda har xil

darajada muhim bo'lishi mumkin. Ushbu so'rovnomalar natijalariga ko'ra, voyaga yetgan o'rganuvchilar orasida o'tkazilgan tadqiqotda chet til o'rganishda o'qish ko'nikmasi eng muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Talabalar uchun o'qish asosida tayyorlangan darsliklar va materiallar orqali tilni o'rganish metodologiyasi, bu yosh guruhida samaraliroq natijalar berishi kuzatilgan. Shuning uchun ham o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, shu yoshdagi o'quvchilar uchun til o'rganishning asosiy nuqtasi hisoblanadi. Bunday yondashuv esa faoliyat birligini ta'minlash va o'quv jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Metodologiya. Haqiqatdan ham, o'qish ta'lim jarayonining eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ehtimol, ko'pchilik yaqin vaqtlarda "semantika" deb nomlangan tushuncha bilan tanishib bo'lganlar. Aslida, semantika o'zi yangi bir narsa emas; bu tushuncha juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Buyuk faylasuf Platon va Aristotelning ishlarida ham tilning ma'nolari va mazmuni o'rganilgan. Demak, "semantika" – bu oddiygina qilib aytganda, til va uning ma'nosi haqidagi ilmiy tadqiqot uchun berilgan yangi nomdan iborat [5].

Bu g'oya amerikalik faylasuflar Mortimer Adler va Charles Van Doren mashhur kitobi "Qanday qilib kitob o'qiladi" da ham yoritilgan. Ular kitobda semantikani faqat terminologik yangilanish sifatida ko'rib chiqishgan va uni tillashuv tamoyillarini ilmiy o'rganish usuli sifatida izohlab berganlar.

Gnoseologiya (bilish haqida ta'limot) nuqtai nazaridan o'qish — bu jonli mushohada jarayonidir, chunki ko'z bilan o'qilgan matnni dilda takrorlash birgalikda amalga oshadi. Bu qoida faqat ona tilda emas, balki chet tillarda ham o'rinlidir. O'qish jarayonining asosiy elementlari sezgiy ko'ruv (ko'z orqali o'qish) va aqliy anglash (mazmuni sezish)dan iborat

bo'lib, ularning o'zaro aloqasi o'qish samaradorligini belgilovchi kalit omillardan biridir. Odatda, o'qishni ikki asosiy qismga ajratish mumkin: a) texnik qism; b) semantik (mantiqiy) qism;

O'qishning texnik qismi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

O'qish usullari – matnni sirg'aluvchan yoki to'xtab-to'xtab o'qish kabi turli usullarda o'qish.

O'qish tezligi – matnni qanchalik tez va samarali o'qish.

To'g'ri o'qish – matndagi so'zlarni xatosiz va aniq talaffuz qilish.

Ifodali o'qish – matnni ma'noga muvofiq ravishda hissiy va intonatsion jihatdan boyitib o'qish.

Semantik (mantiqiy) o'qish esa:

Matnni mazmunan chuqur tushunishni ta'minlaydi. Bu jarayon o'qilayotgan matnni faqat sirtki qatlami emas, balki uning ichki mohiyati, g'oyasi va ma'nosi bilan tanishishni anglatadi. Semantik o'qish natijasida matn mazmuni to'liq va aniq tushuniladi, o'qish samaradorligi ham maksimal darajaga yetadi.

Semantik o'qishning asosiy maqsadi – matn mazmunini iloji boricha aniq va to'liq tushunish, uning barcha detallarini chuqur anglash va amalda qo'llashdir [6]. Xalq orasida shunday bir gap bor: "Sanoqqa emas, sifatga ish qil." Bu ibora semantik o'qishni yaxshi ifodalaydi, chunki u faqat tezlikka emas, balki chuqur tushunishga urg'u beradi.

Matnni tezda bir ko'z yugurtirib o'qib chiqish mumkin. Bunday holda, o'quvchi faqat umumiy ma'lumotga ega bo'lish uchun o'qish jarayonini amalga oshiradi. Buni mazmunli o'qish deb atash mumkin. Ammo agar matnda keltirilgan barcha ma'lumotlarni aniq va to'liq tushunish lozim bo'lsa, unda sinchiklab o'qish zaruriyati tug'iladi. Sinchkovlik bilan o'qish esa matnning har bir jihati ustida chuqur fikr yuritishni talab qiladi. Semantik o'qish esa mazmunli o'qish va sinchiklab o'qishni ham bir vaqtda amalga oshiradigan murakkab jarayondir. U hissiy va aqliy bilish jarayonlarini birlashtiradi: o'quvchi bir tomondan matnni sezgiy darajada idrok etadi, ikkinchi tomondan esa uni mantiqiy va analitik jihatdan chuqur tahlil qiladi.

Bunday o'qish uslubi o'quvchida tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Tilshinos K.H.Sayitovanning [3] fikriga ko'ra, mantiqiy (semantik) o'qish orqali olingan bilimni faqat standart vaziyatlarda emas, balki noodatiy vaziyatlarda ham qo'llash qobiliyati rivojlantiriladi.

Semantik o'qish jarayonida quyidagi metodlar amalga oshiriladi:

Sarlavhani chuqur o'rganish:

Avvalo, matnning sarlavhasi yoki uning nomini sinchiklab o'qib chiqamiz. Sarlavha – bu matn mazmunining kaliti bo'lib, undan kelajakda o'qiladigan ma'lumotlarni bashorat qilish imkoniyati tug'iladi.

Sarlavha haqida savollar qo'yish:

Sarlavha ustida fikr yuritish uchun savollar beramiz. Masalan: Nimaga muallif aynan shunday sarlavha tanlagan? Muallif nima maqsadda shu mavzuni yoritmoqchi bo'lgan? Matnning boshlang'ich va yakuniy qismlariga e'tibor berish:

Matnni o'qishda uning boshlang'ich qismi va oxirgi qismidagi 2-3 ta gap alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki ana shu qismlar matnning asosiy g'oyasini yoki xulosasini ifodalaydi. Shuning uchun bu qismlarni ham e'tibor bilan o'qish lozim.

Har bir paragrafning kirish qismini tahlil qilish:

Har bir paragrafning birinchi yoki ikkinchi gaplari shu paragraf uchun ma'noga oid kalit hisoblanadi. Bu gaplar paragrafning mohiyatini ochib beradi va matnni tushunishga yordam beradi.

Yuqoridagi usullar matn turi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barcha hollarda moslashtirib qo'llanishi mumkin. Biroq, ingliz tilida berilgan matnlarni keng va tor doirada o'qitishda quyidagi texnikalardan foydalanish samaraliroq bo'ladi:

Matnni o'qib, qisqacha mazmunini yozib qo'yish:

Matnni o'qiganingizdan so'ng, uning asosiy mazmunini yoki tushunganliklarini biror joyga (daftar, elektron eslatma yoki maxsus qog'ozga) qayta qilib yozib qo'ying. Bu sizning matnni chuqurroq anglashga va eslab qolishingizga yordam beradi.

O'z-o'zingizni qo'llab-quvvatlash:

O'qish jarayonida o'zingizni rag'batlantiring. Masalan, murakkab bo'lgan qismlarni tushunganingizdan keyin o'zingizga "Barakalla!" degan izohlardan foydalanishingiz mumkin. Shuningdek, tushunmagan joylaringizni belgilab qo'ying va ularni keyinchalik qayta ko'rib chiqing.

Ajratib ko'rsatilgan qismlarni belgilash:

Matnda muhim deb bilgan qismlarni (masalan, asosiy g'oyalarni yoki xulosalarni) marker yoki chiziqli bilan ajratib qo'ying. Bu sizga keyinchalik matnni tezroq takrorlash imkonini beradi.

Oson va qiyin savollarga javob topish:

Matn bo'yicha savollar tuzing: ba'zilar oddiy va to'g'ridan-to'g'ri javobli, ba'zilar esa chuqur tahlil talab etadigan qiyin savollar bo'lishi mumkin. Savollarga javob topish orqali siz matnni yanada yaxshiroq tushunasiz.

Kalit so'zlarni belgilab borish:

Matndagi eng muhim so'zlarni (kalit so'zlarni) alohida ajratib oling va ularning ma'nolarini tekshiring. Agar kerak bo'lsa, lug'atdan foydalanib, bu so'zlarning ingliz tilidagi sinonimlarini ham bilib oling. Bu sizning so'z boyligingizni ham rivojlantiradi.

Muhokama. Metod va texnika so'zlari bir-biriga yaqin ma'noda ishlatiladi, ammo ularning mazmuni va qo'llanilish sohasi o'ziga xos farqlarga ega. Metod atamasi o'qitish jarayonida umumiy va tizimlashtirilgan yondashuv sifatida qaraladi bo'lsa, texnika esa aniq bir vazifa yoki jarayonni bajarish uchun qo'llaniladigan usul va vositalarni anglatadi. YA'ni, metod — bu umumiy strategiya, texnika esa natijaga erishish uchun qo'llaniladigan konkret amaliy ko'nikma yoki harakatdir.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar rus olimlari tomonidan chuqur va atroflicha o'rganilgan. Bu sohaning yetakchi mutaxassislari – S.M. Bondarenko, G.G. Granik, R.A. Dunilova, G.S. Kovaleva, L.A. Kontseva, E.A. Krasnovskiy, M.N. Rusetskaya, N.N. Smetannikova, G.I. Shchukina va boshqa tadqiqotchilar — turli jihatdan o'qish jarayonini tahlil qilib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berishgan.

Ular fikriga ko'ra, o'qiyotgan auditoriyaga qo'yiladigan talablar vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda. Bugungi kunda o'quvchilardan quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi:

a) Yashirin ma'lumotni aniqlash – matn ichida ochiq shaklda aytilmagan, ammo mazmunda shunday nazarda tutilgan g'oyalarni sezish va anglash.

b) Baholovchi munozarani shakllantirish – matn mazmuniga nisbatan mustaqil fikr yuritish va uni isbotlashga qodir bo'lish.

c) Matn mazmuni bo'yicha mulohazalarni aniqlash – matnning asosiy g'oyalarini ajratib olish va ularga oid o'z fikrlarini bayon qila olish [4].

Semantik o'qish jarayonida o'quvchilardan murakkab va tushunishga qiyin bo'lgan matnlarni aqliy tasavvur orqali aniqlash talab etiladi. Buning uchun ular aniqlik va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini birgalikda qo'llashi lozim. O'qish jarayonida o'quvchi avval sarlavha yoki ajratib ko'rsatilgan nomni tushungan holda o'qishni davom ettirishi, so'ngra o'z

ichki savollariga javob topib borishi kerak. Bu jarayon semantik o'qishning asosiy tamoyillaridan biridir. Mashxur metadist olim Jamol Jalolov esa o'qishni quyidagi mexanizmlarga ko'ra tasniflagan:

Idrok xususiyati va tushunish jarayoniga ko'ra:

Analistik (tahlil qilish) va sintetik (umumlashtirish) o'qish.

Ko'zlangan maqsadga ko'ra:

-Tanishuvchi o'qish (matnga dastlabki munosabatni shakllantirish),

-O'rganuvchi o'qish (matnni chuqur o'rganish),

-Kuzatuvchi o'qish (matnda berilgan ma'lumotlarni kuzatib borish) [2].

Semantik o'qish ayniqsa idrok xususiyatiga ko'ra analiz va sintez jarayonlariga asoslanadi. YA'ni, matnni tahlil qilish va undagi alohida elementlarni umumlashtirish orqali mazmuni chuqurroq anglash mumkin.

Natijalar. Semantik o'qish – bu shunday bir jarayonki, unda berilgan matn aniq va aqliy ravishda tushuniladi, va bu o'z navbatida ijobiy natijalarga olib keladi, deb yozadilar mutaxassis olimlar Natalia Gorlova va boshqa tadqiqotchilar [7]. Ularning o'tkazgan tajribalariga ko'ra, matnning semantik (ma'noli) mohiyatini anglab yetish talabalarning nutq faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlanishga yordam beradi.

Bu jumladan:

Retseptiv mahoratlar (tinglab tushunish va o'qish): matnni tahlil qilish va uning ma'nosini chuqur anglash orqali rivojlanadi.

Produktiv mahoratlar (gapirish va yozish): matn mazmunini o'z fikrlariga qo'shib bayon eta olish va yozma shaklda ifodalash ko'nikmasini oshiradi.

Shuningdek, mutaxassislar gapirish mahoratini yanada oshirish uchun ko'proq o'qish va tinglash zarurligini ta'kidlaydilar. Chunki gapirish mahorati asosan tilning eshitish va o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, bu ko'nikmalarni mustahkamlash orqali gapirish ham samaraliroq rivojlanadi.

Misol sifatida, IELTS imtihonlariga tayyorlanish jarayonida ekspertlar hamda yuqori ballar (9 ballik darajaga erishgan, "niner" deb ataladigan) o'quvchilar ko'proq o'qish va eshitish zarurligini ta'kidlashadi. Bu ko'nikmalar gapirish va yozish mahoratlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Semantik o'qishni filolog N.N. Smetannikova ning "5-9 sinflarda o'qishni o'rgatish strategiyasi" nomli qo'llanmasida refleksiv tarzda tushuntirilgan. Ingliz tilidagi "reflexive" so'zi o'zbek tiliga "refleksiya" deb tarjima qilingan bo'lib, izohli lug'atlarda bu so'z insonning o'z xatti-harakatlarini, fikrlarini va ularga asoslangan harakatlarini tushunib yetishi va anglashiga qaratilgan nazariy faoliyatni anglatadi [10].

Shuning uchun ham, inson 10 ta kitobni, tushunmasdan o'qiganidan ko'ra, bitta kitobni chuqurroq anglab, uning mazmunini mulohaza qilib o'qisa, ana shu samaraliroq bo'ladi. Chunki semantik o'qishning asosiy maqsadi – matnni faqat o'qib chiqish emas, balki uning mohiyatini, ma'nolarini va undagi g'oyalarni chuqur anglashdir.

Xulosa. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida yoshlar adabiyotlar bilan ta'minlangan holda, kitoblarni fizik tarzda ko'tarib yurmasdan turli raqamli dasturlar orqali o'qish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Biroq, bu qulaylik bilan birga kitobni faqat ko'rib chiqish uchun o'qish kabi noto'g'ri yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik muhim. Kitob o'qishning asosiy maqsadi – uni mazmunini anglash va foydalanishdir. Shu sababli, "O'qigan olim emas – uqqan olimdir" degan ibora doimo esdan chiqarilmagan holda, semantik o'qishga ustunlik berish lozim.

Semantik o'qishni o'rgatishning asosiy maqsadi ham shundadir: chuqur tushunib o'qishni o'rgatish va ana shu tarzda o'qishni o'zlashtirgan yoshlar safini kengaytirishdir. Ya'ni, matnni faqat yuzaki o'qish emas, balki uning mohiyatini anglashga intilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Adasay Berdikulova, Shynar Kapantaykyzy, Nauzhan Diarbekova, Ainur Amangeldi Aigul Aimkhan. "Development of reading skills in an adult learning a language" Scientific Herald of UzHarold University press: 24.06.2024 1792-bet.
2. Jamol Jalolov. "Chet til o'qitish metodikasi" O'qituvchi nashriyoti: 2012. 25-bet va 267-bet.
3. Sayitova K.H. "Methods of artistic translation of comparisons on the example of the story of Hemingways Old Man and the Sea" International journal of Trend in Scientific research and development. WWW.ijtsrd.com ISSN:245664702t
4. Кротова Мария Юрьевна и Рыбкина Алла Анатольевна. "Интерактивные преми в обучении сысловому чтению на английском языке студентов языковых направление подготовки" Focus on Language Education and Research: 2022, Vol. 3, No 2 ISSN 2686-7516 C.74
5. Mortimer J.Adler and Charles Van Doren (Guide book). "How to read a book" A touchstone book Published by Simon & Schuster, New York, London, Toronto, Sydney: 1972. P.44
6. Nilufar Gofur kizi Burieva. "The importance of teaching semantic reading and reading strategies" Pedagog ilmiy jurnali 6-tom, 11-son 2025 15-noyabr 507 bet.
7. Natalia Gorlova, Kurman Semyonov and Elena Yakovleva. "Quantum technologies of formimgn semantic reading strategies at students - future teachers" . E3S Web of Conference. 2010. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202021018119>.
8. Smetannikova N.N., "Teaching reading strategies in grades 5-9: how to implement the FSED": a manual for teachers M.,Balass, 2011.
9. Ўзбек тилини изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти Тошкент: 2006. Б.380